Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 69

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

QURILISH SOHASIDA LOGISTIKA TIZIMLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Avazbek Nodirjon o‘g‘li Sharipov*

Farg‘ona davlat universiteti Iqtisodiyot mutaxasisligi 2-kurs magistranti

✉ avazbek545@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola qurilish sohasidagi logistika tizimlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo‘llarini tahlil qiladi. Qurilish jarayonlarida samarali logistika tizimi qurish va boshqarish, loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhim omil hisoblanadi. Maqolada axborot texnologiyalaridan foydalanish, inventarizatsiyani yaxshilash, transport va yetkazib berish jarayonlarini optimallashtirish, resurslar boshqaruvi, shuningdek, ekologik va barqaror rivojlanish tamoyillariga e’tibor qaratish zarurligi ko‘rsatilgan. Boshqaruv va koordinatsiya jarayonlarini optimallashtirish hamda xarajatlarni nazorat qilish metodlari yoritilgan. Ushbu takliflar qurilish logistikasini samarali boshqarish va uning rivojlanishiga katta hissa qo‘shishi mumkin. Maqola amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, qurilish sohasidagi menejerlar, logistika mutaxassislari va loyiha boshqaruvchilari uchun foydali tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar

qurilish logistika tizimi, logistika boshqaruvi, resurslarni boshqarish, transport va yetkazib berish, axborot texnologiyalari, xarajatlarni nazorat qilish, barqaror rivojlanish, qurilish sohasida innovatsiyalar, tizimni optimallashtirish, samarali boshqarish metodlari.

DOI: 10.5281/zenodo.23886030

KIRISH. Qurilish sohasidagi logistika tizimlari nafaqat qurilish materiallarining yetkazib berilishida, balki qurilish joylarida samarali ishlashni ta'minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Logistika tizimlarini samarali boshqarish qurilish jarayonlarini tezlashtirish, xarajatlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash va umumiy ish unumdorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Qurilish iqtisodiyotning barcha tarmoqlari rivojlanishiga katta turtki beradigan sohadir. Har bir loyiha qurilish materiallari va jihozlarga, ishchi va mutaxassislarga talabni oshiradi. Yangi majmualar atrofida yangi ish o‘rinlari, infratuzilma va xizmatlar paydo bo‘ladi. So‘nggi yetti yilda qurilish materiallari sohasiga 9 milliard dollar investitsiya kiritilib, 5 mingga yaqin yangi korxona ishga tushirilgan, 94 mingta doimiy ish o‘rni yaratilgan. Ishlab chiqarish 2 karra o‘sgan, yillik aylanmasi 100 milliard so‘mdan ziyod korxonalar 150 tadan oshgan. Qurilish sohasida logistika tizimlarining boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi dolzarb bo‘lib, bu sohada zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, resurslarni samarali boshqarish va ta'minot zanjirlarini optimallashtirish zarurati o‘sib bormoqda. Qurilish sohasida logistika tizimlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi va samarali boshqarish mexanizmlarini yaratish uchun kerakli strategiyalar ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Qurilish sohasida logistika tizimlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga oid adabiyotlar tahlili, bu mavzuning rivojlanishini va dolzarbligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar asosida bu masalalarni yaxshilashning turli usullari hamda yon-

dashuvlarini aniqlashga imkon beradi. Quyida, qurilish sohasidagi logistika boshqaruvi, uning takomillashtirilishi va zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanishi bo‘yicha bazi asosiy adabiyotlar va tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Shapiro, J. F. (2019). “Logistics and Supply Chain Management” Ushbu asarda logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvining nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishi tahlil qilingan. Shapiro, logistika boshqaruvi jarayonlarini optimallashtirish, resurslarni samarali taqsimlash va etkazib berish jarayonlarining muvofiqlashtirilishi haqidagi ilmiy tushunchalarni ko‘rsatadi.

Jonsen, A., & Arnold, P. (2020). “Supply Chain Optimization in the Construction Industry” Tadqiqotda qurilish sanoatida ta'minot zanjirini optimallashtirish masalalari tahlil qilinadi. Jonsen va Arnold ta'minot zanjirini optimallashtirishning amaliy usullarini, jumladan, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, avtomatlashtirilgan tizimlar va ma'lumotlar tahlili orqali yaxshilanishni ko‘rsatadi.

Mujkic, E., & Ilin, Z. (2019). “Automation in Construction Logistics”

Ushbu tadqiqotda qurilish sohasida avtomatlashtirilgan logistika tizimlarini qo‘llashning afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Mujkic va Ilin avtomatlashtirish yordamida materiallar va jihozlarni boshqarish jarayonlarini yanada samarali qilish, xatoliklarni kamaytirish va operatsion xarajatlarni qisqartirish imkoniyatlarini tahlil qiladilar.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy qurilish logistika tizimlarining samaradorligini oshirish usullarini o'rganish va tahlil qilishdir. Tadqiqotda qo'llanilgan metodologiya, asosan, sistemali yondashuv**,** statistik tahlil qiyosiy tahlil, omilli tahlil, tanlanma kuzatish, analiz va sintez, kabi usullardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qurilishda logistika tizimlarini boshqarishda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va ma'lumotlarni tahlil qilish juda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, IoT (Internet of Things) texnologiyalari yordamida materiallar va asbob-uskunalar harakatini real vaqt rejimida kuzatish mumkin. Bu texnologiyalar qurilish materiallarining yetkazib berilishidagi kechikishlarni kamaytirishga, saqlash va inventarizatsiya jarayonlarini soddalashtirishga yordam beradi. Oxirgi besh yilda bunyodkorlik hajmi 2 baravar ko‘paygan. 650 million dollarlik yangi mahsulotlar o‘zlashtirilgani hisobiga qurilishdagi import ulushi 31 foizdan 25 foizga kamaygan. Qurilish materiallari eksport bozori kengayib, 58 taga yetdi. Xorijda 20 dan ortiq savdo omborlari, 50 dan ziyod do‘konlar ochildi. Bu yil eksport miqdorini 1 milliard dollarga yetkazish mo‘ljallangan. Bugun yurtimizda quvvati 140 ming tonna bo‘lgan 7 ta bazalt korxonasi bor. Binokorlikda bu mahsulot keng qo‘llanayotgani natijasida yangi uy-joy va ijtimoiy binolarda energiya sarfi 20 foizgacha kamaygan. Tadbirkorlar bilan birgalikda, 3,5 milliard dollarlik 350 ta yangi loyiha rejalashtirilgan. Ularning qurilishiga hamda faoliyatiga kambag‘al oilalardan 50 ming fuqaroni ishga joylashtirish ko‘zda tutilgan. Bugungi kunda ilg‘or xorijiy korxonalar issiqlik energiyasidan qayta foydalanish orqali elektr olish texnologiyasini faol qo‘llamoqda. Shu asosida, energiya sarfi yuqori bo‘lgan 34 ta korxonada energo auditni yakunlab, yiliga 300 million kilovatt soat elektrni iqtisod qilish mumkin. Hozir yurtimizda ishlab chiqarilayotgan 170 nomdagi qurilish materialidan 97 tasi bo‘yicha ichki talab qoplangan. Ichki va tashqi ehtiyojdan kelib chiqib, yangi mahsulotlar bo‘yicha takliflar tayyorlanib, ochiq portalga joylashtiriladi. Loyihalar “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining ilmiy-texnik kengashida ko‘rib chiqiladi. Mazkur uyushma huzurida Koreya tajribasi asosida sinov laboratoriyasi tashkil etiladi.

Logistika tizimlarining qurilish sohasidagi roli

Qurilish sohasida logistika tizimlari materiallarning etkazib berilishi, ularni omborlarda saqlash, ishlov berish va qurilish maydonlariga yetkazib berish jarayonlarini samarali boshqaradi. Buning natijasida:

- Qurilish ishlari o‘z vaqtida yakunlanadi;
- Materiallar va jihozlarning isrof bo‘lishi kamayadi;
- Harajatlar va vaqt tejaladi.

Qurilish ishlari o‘z vaqtida yakunlanishi, ya'ni qurilishning belgilangan muddatda yakunlanishi, qurilish loyihasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun juda muhim omil hisoblanadi. Buning uchun bir nechta faktorlar va boshqaruv usullari mavjud:

1. Rejalashtirish va tayyorgarlik
2. Logistika va materiallarning samarali boshqaruvi
3. Texnologiyalar va innovatsiyalar
4. Jamoa va ishchi kuchining samarali boshqaruvi
5. Xavfsizlik va sifat nazorati
6. Loyihaning monitoringi va boshqaruvi
7. Risklarni boshqarish

Qurilish ishlari o‘z vaqtida yakunlanishi uchun rejalashtirish, logistika, texnologiyalar, jamoa boshqaruvi, xavfsizlik va sifat nazorati, loyiha monitoringi, va risklarni boshqarish tizimlarining muvofiqlashtirilgan ishlashi zarur. Har bir bosqichda samara olish va barcha jarayonlarni muvofiqlashtirish qurilishning belgilangan muddatda va sifatli bajarilishiga olib keladi.

Qurilish sohasida materiallar va jihozlarning isrof bo‘lishi kamayishi, resurslarni samarali boshqarish va xarajatlarni optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Qurilish jarayonida isrofgarchilikni kamaytirish uchun turli usullar va metodlar mavjud. Quyida materiallar va jihozlarning isrof bo‘lishini kamaytirishga yordam beruvchi asosiy yo‘llar keltirilgan:

1. Rejalashtirish va aniq hisob-kitob
2. Inventarizatsiya va ombor boshqaruvi
3. Texnologiyalarni joriy etish
4. Sifatli materiallar va jihozlarni tanlash
5. Muvaffaqiyatli boshqaruv va monitoring

Qurilish materiallari va jihozlarining isrof bo‘lishini kamaytirish uchun rejalashtirish, aniq hisob-kitob, sifatli materiallar tanlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishchi kuchini samarali boshqarish zarur. Bularning barchasi qurilish jarayonining samaradorligini oshiradi va resurslarni tejashga yordam beradi, shu bilan birga qurilish xarajatlarini kamaytiradi.

Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasi qurilish sohasini modernizatsiyalash, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2020—2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoyish qabul qilinganligi sohani rivojlantirishning asosiy strategiyalarini belgilashni taqazo etmoqda.

Qurilish sohasining rivojlanishining asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Kam qavatli uy-joy qurish uchun energiya tejamkor va ekologik texnologiyalar bo‘yicha yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, shuningdek, mavjudlarini modernizatsiya qilish loyihalarini qo‘llab-quvvatlash.

2. Energiya samaradorligi va ekologik tozalik talablariga javob beradigan ekonom-sinfdagi uy-joylar qurishning yangi texnologiyalarini yaratish loyihalarini qo‘llab-quvvatlash. Shuningdek, mazkur dastur doirasida “Uy-joy qurilishi uchun yer uchastkalarini kommunal infratuzilma bilan ta’minlash” kichik dasturi doirasida amalga oshirilishi boshlangan loyihalarni tugallanishini ta’minlash maqsadida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Dasturda ipoteka kreditlashni rivojlantirish ham mavjud. Mazkur tadbir aholiga ipoteka kreditlash tizimidan samarali foydalanish, ekonom toifadagi uy-joylar qurilishini rag‘batlantirish va bunday loyihalarni amalga oshiruvchi loyihalarni amalga oshiruvchi loyihalarni kreditlashda qulaylik yaratish imkonini beradi. Ta’kidlash joizki, dastur doirasida davlat tomonidan qo‘llabquvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali uy-joy qurilishi uchun mo‘ljallangan yer uchastkalarini kommunal infratuzilma bilan jihozlashga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmini sezilarli darajada oshirish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistonda qurilish sohasini modernizatsiyalash, jadal va innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilanadi:

- qo‘shimcha kichik tizimlar va ma’lumotlar bazalarini yaratish yo‘li bilan qurilish sohasini raqamlashtirish;

- shaharsozlik sohasidagi normativ bazani modernizatsiyalash va xorijiy normativ hujjatlarni moslashtirish;

- aholi punktlarini kompleks rivojlantirish tizimini takomillashtirish;

- qurilish sohasida ayrim ruxsat berish tartibotlarini soddalashtirish yo‘li bilan “Biznes yuritish” xalqaro indeksida “Qurilish uchun ruxsatnomalar olish” ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi pozitsiyasini yaxshilash;

- uy-joy ko‘chmas mulki qurilishida ulush kiritish asosida uy-joylarni qurish uchun aholi mablag‘larini keng jalb qilish orqali ipoteka krediti bozorini va ko‘p kvartirali uylar qurilishini rivojlantirish;

- qurilish materiallarini ishlab chiqishga va obyektlar qurilishiga innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilish;

- investitsiya loyihalari ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblarda yiriklashtirilgan ko‘rsatkichlarga bosqichma-bosqich o‘tish;

- institutsional asosning liberallashtirilishini hisobga olgan holda litsenziyalash prinsiplarini takomillashtirish, loyiha va pudrat ishlari potensialini kuchaytirish;

- loyihaning smeta qismida davlat ekspertizasini bekor qilish yo‘li bilan ekspertiza ishlari tizimini takomillashtirish;

- davlat, mualliflik va texnik nazoratni nodavlat sektorga yo‘naltirish orqali qurilish sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish;

- aksiyalar paketini ilg‘or xorijiy investorlarga realizatsiya qilish orqali ilg‘or xorijiy kompaniyalari ishtirokida zamonaviy loyiha institutlarini tashkil qilish;

- o‘qitishning zamonaviy va innovatsion usullari qo‘llanishini hisobga olgan holda qurilish yo‘nalishidagi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish tizimini takomillashtirish;

- loyihalarni moliyalashtirishning davlat manbalari va ularga tenglashtirilgan manbalar hisobidan amalga oshirishda, davlat segmentlarining liberallashtirilganini hisobga olgan holda, nodavlat buyurtmachilar institutini shakllantirish va mustahkamlash;

- o‘tkazilayotgan fundamental, qidiruv va amaliy ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar samaradorligini oshirish orqali qurilish va arxitektura sohasida ilmiy salohiyatni rivojlantirish;

- qurilish obyektlarida qurilish-montaj ishlarini bajarishda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasiga bo‘lgan talablarni kuchaytirish;

- inson kapitalini rivojlantirish, qurilish organlari va muassasalari faoliyatini moddiy-texnik ta’minotini yaxshilash, ishchilarni ijtimoiy va moddiy rag‘batlantirishning yangi mexanizmlarini yaratish.

Qurilish sohasini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish, pudrat xizmatlari bozorini rivojlantirish, qurilish ishlari bilan band bo‘lgan mutaxassis va ishchilarga mehnat qonunchiligi asosida qulay shart-sharoitlar yaratish, qurilishpudrat tashkilotlarining xalqaro talablarga muvofiq faoliyatini kengaytirishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, yangi innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni o‘z vaqtida joriy etish qurilish ishlarining sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarishning muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, tahlillar qurilish sohasida pudrat ishlari bozorini tashkil etish, zamonaviy qurilish uslublari, normalari va qoidalarini keng joriy qilishga, raqobatni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. **Xususan:** birinchidan, pudratchi tashkilotlarning ishlab chiqarish-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish hisobiga olib borilayotgan qurilish-montaj ishlarining miqyosi va sifatini tubdan yaxshilash, butun qurilish ishlari siklini “kaliti bilan topshirish” usulida bajarishni holati hamda rivojlanish tendensiyalari kompleks tahlil qilinmagan, oqibatda hududlarda olib borilayotgan qurilish ishlarining sifatini rivojlantirishning o‘rta muddatli va istiqbolli yo‘nalishlari belgilanmagan; ikkinchidan, qurilish-pudrat tashkilotlarining imkoniyatlarini hisobga olgan holda ular faoliyatini litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari yo‘qligi sababli, qurilish-pudrat tashkilotlarining faqat respublika hududida faoliyat olib borish bilangina cheklanib qolishiga sabab bo‘lmoqda hamda aksariyat hollarda qurilish obektlari uchun o‘tkaziladigan tanlovlarda sohada yetarlicha tajribaga, moddiytexnika bazasiga va doimiy ishlovchi malakali mutaxassis hamda ishchilarga ega bo‘lmagan qurilish pudrat tashkilotlari ishtirok etishiga olib kelmoqda; uchinchidan, qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi to‘rtinchidan, qurilish-pudrat tashkilotlari doimiy ishchilarga ega bo‘lmaganligi, qurilish obektlarida vaqtinchalik yollanma ishchilarni ishlatilishi qurilish-montaj ishlarining sifatsiz bajarilishiga, shuningdek, soliq va mehnat qonunchiligi talablarining ko‘pol ravishda buzilishiga olib

kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish sohasida logistika tizimlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish mavzusida xulosa va takliflar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Qurilish jarayonlarida logistika tizimlari materiallar va jihozlarning samarali boshqarilishi, vaqtni tejash, xarajatlarni kamaytirish va isrofgarchilikni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ri tashkil etilgan logistika tizimi qurilish jarayonlarini tezlashtiradi va loyiha vaqtining qisqarishiga olib keladi.

2. Qurilishda materiallar va jihozlar samarali boshqarilishi muhim ahamiyatga ega. Agar materiallar optimal miqdorda va to‘g‘ri joylashtirilsa, isrof kamayadi va xarajatlar qisqaradi. Shuningdek, texnologiyalarning joriy etilishi materiallar va jihozlarni qayta ishlashni va ularni qayta ishlatishni osonlashtiradi.

3. Qurilishning o‘z vaqtida yakunlanishi uchun barcha jarayonlar o‘rtasida samarali muvofiqlik bo‘lishi zarur. Ishlarni rejalashtirishdan tortib, materiallar va jihozlar yetkazib berilishigacha bo‘lgan barcha bosqichlar yaxshi boshqarilishi kerak. Bu esa qurilishning o‘z vaqtida yakunlanishiga va qo‘shimcha xarajatlarning oldini olishga yordam beradi.

4. Qurilishda ishlatiladigan materiallar sifatli bo‘lishi kerak. Sifatli materiallar uzoq muddat xizmat qiladi, bu esa qurilishning o‘z vaqtida yakunlanishiga va ortiqcha xarajatlarning oldini olishga yordam beradi. Shu bilan birga, jihozlar va uskunalar ham yuqori sifatga ega bo‘lishi kerak.

5. Qurilishda ishlatilgan materiallarning qayta ishlanishi va ularni qayta ishlatish tizimlarini joriy etish zarur. Bu isrofni kamaytirishga, resurslarni tejashga va atrof-muhitni himoya qilishga yordam beradi.

6. Qurilish maydonida xavfsizlikni ta’minlash va sifat nazoratini kuchaytirish zarur. Ishchilarni xavfsiz sharoitlarda ishlashini ta’minlash, shikastlanishlar va ishni to‘xtatishga olib keladigan holatlarning oldini oladi. Bu, o‘z navbatida, qurilish jarayonining o‘z vaqtida va sifatli tugashini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullaev A. Qurilish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish strategiyasi (Toshkent viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 2019. – 27 bet.

2. Hasanov T.A. O‘zbekistonda xususiy uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish // Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2019 y. - 56 b.

3. Matrizaeva D.Yu. Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini boshqarishni takomillashtirish (“O‘zsanoat qurilish materiallari” uyushmasi misolida). Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: TDIU, 2021. – 61 b.

4. Djumaniyazov U.I. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. Iqt fanl bo‘yicha fal.dokt.(PhD) diss.avtoref. Toshkent.:TDIU, 2017.

5. Abdullaev A. Qurilish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish strategiyasi (Toshkent viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 2019. – 27 bet.